

Urganch shahri

30.04.2026-yil

Raislik qildi:

A.Ollaberganov

Kotiba:

D.Adambayeva

Qatnashdi:

Barcha xodimlar

Yuridik xizmat sho'bası

Bosh yuristkonsult

J.Ruzmetov

KUN TARTIBI:

**AT "Aloqabank" Bank Boshqaruvining 2026-yil 21 apreldagi 214-F-sonli
Farmoyishining ijrosi to'g'risida**

Kun tartibidagi masala yuzasidan Yuridik xizmat sho'bası bosh yuristkonsult J.Ro'zmetov so'zga chiqib AT "Aloqabank" Bank Boshqaruvining 2026-yil 21 apreldagi 214-F-sonli Farmoyishi o'qib eshittirdi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.04.2025-yildagi PQ-147 sonli "Davlat organlari va tashkilotlarining korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari mustaqilligini ta'minlash hamda faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori ishchi-xodimlar orasida keng targ'ib qilish va Korrupsiyaga qarshi yo'nalishda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, erishilgan yutuqlar va muammolarni aytib o'tdi. Ushbu Qonunning maqsadi korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat. Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish; korrupsiyaga oid huquqbuzarlik — korrupsiya alomatlariga ega bo'lgan, sodir etilganligi uchun qonun hujjatlarida javobgarlik nazarda tutilgan qilmish;

manfaatlar to'qnashuvi — shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorlik shaxsning mansab yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta'sir ko'rsatayotgan yoxud ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatları o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyat.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;

ochiqlik va shaffoflik;

tizimlilik;

davlat va fuqarolik jamiyatining hamkorligi;

korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar ustuvorligi;

javobgarlikning muqarrarligi.



Ta'kidlash lozimki, korrupsiya, eng avvalo, inson xuquqlarini ta'minlashga monelik qilib, ijtimoiy tengsizlikni keltirib chiqaradi. Erkin bozor iqtisodiyotining rivojlanishiga, xayot darajasining pasayishiga olib keladi. Shu bilan bir qatorda korrupsiya fuqarolarning davlat boshqaruvi idoralariga bo'lgan ishonch yo'qolishiga olib kelib, uyushgan jinoyatchilikning avj olishiga zamin yaratadi va insonlarning xavsizligiga taxdid solishini tushuntirdi

Markaz direktori A.Ollaberganov so'zga chiqib Korrupsiya jamiyatni yemiruvchi illat bo'lib, u ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy rivojlanishiga, demokratiya asoslariga va qonun ustivorligiga to'sqinlik qilishini xamda korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturi ishlab chiqilganligini Ushbu dasturga asosan Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari mazmun-mohiyatini tushuntirish va bir kancha topshiriqlar borligini aytib tushuntirib berdi

Kun tartibidagi masala yuzasidan yig'ilish qatnashchilari tomonidan o'zlarini qiziqtirgan savollarga qoniqarli javoblar oldilar

Yig'ilish muhokama yuzasidan

Qaror qiladi

1. AT "Aloqabank" Bank Boshqaruvining 2026-yil 21 apreldagi 214-F-sonli Farmoyishi ijro uchun qabul qilinsin

2. Filialning umumiy yig'ilishiga qo'yilgan kun tartibidagi masalalar yuzasidan bildirilgan fikrlar ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. AT "Aloqabank" Xorazm Hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazida AT "Aloqabank" 2026-yilda o'tkaziladigan o'quv seminarlari Reja-Grafigi ijro uchun qabul qilinsin.

4. Ish yuritish shobasi boshlig'i, yuridik xizmat sho'basi bosh yuristkonsult J.Ruzmetovga

- Bank xodimlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish yonalishida har oyda bir marta o'quv rejasiga asosan o'quv seminarlari hamda davra suhbatlari o'tkazilishi tashkil etishin

5. Filialning barcha bo'lim va sho'ba rahbarlari hamda xodimlariga:

- Xodimlarning hozirgi davrda o'zlariga ogox bo'lishlari. Ishda va ishdan tashqari paytlarida yuqoridagi salbiy nojo'ya xatti-xarakter qilayotgan shaxslarni sezib qolsalar tezda bu xaqda maxsus davlat idoralariga xabar berishlari lozim.

- jismoniy va yuridik shaxslarning korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqidagi murojaatlarini o'z vaqtida qabul qilishda "ishonch telefonlari" va rasmiy veb-saytlardan foydalanishi ustidan monitoring o'tkazilsin,

- "ishonch telefonlari" orqali va rasmiy veb-saytlarga kelib tushgan murojaatlarning tahlili qilinsin;

- Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etilsin.

6. Mazkur yig'ilish bayoni (fotosurat va videolovxa) Bosh bankga ma'lumot uchun taqdim qilinsin.

7. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilishni Yuridik xizmat sho'basi bosh yuristkonsulti J.Ruzmetov zimmasiga yuklatilsin.



AT "Aloqabank"
Xorazm HKXKM
direktori

A.Ollaberganov

